

**YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA AXBOROT TA'MINOTI,
GEOINFORMATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
DOLZARB YO'NALISHLARI**

Zokirjonova Sarvinoz Shokirjon qizi

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy Tadqiqot Universiteti, "Iqtisodiyot" fakulteti, "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'naliishi 2-kurs talabasi

Temirxanova Mo'tabar Jurayevna

Ilmiy rahbar: "Iqtisodiyot" fanlari fan doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer resurlaridan unumli foydalanish, qishloq xo'jaligida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Qolaversa mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida davlatimizning olib borayotgan agrar siyosati va uning asosiy yo'naliishlariga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrar siyosat, agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, agrar tarkib, agrar iqtisodiyot, yer resurslari, suv tarmoqlari, raqamli texnologiya, agroturizm, texnika-texnologiya

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ishlar bunga misol bo'ladi. Xususan, 2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili deb e'lon qilinganligi ham ta'lim tizimining qanchalik dolzarb masala ekanligi hamda zamon talabi asosida texnika va texnologiyalarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yosh kadrlar salohiyatini texnika asri asosida yanada oshirish, hamda kelajakda yangi yutuqlarga erishish yo'lida qulay imkoniyatlar yaratib berish zamon talabi bo'lib kelmoqda. Mamlakat yoshlar qo'lida shu asosda ularga to'g'ri ko'nikma bergan xolda rivojlangan mamlakatlar tajribasini, ularning bilim salohiyatini o'rganib, yangi g'oyalar ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish zamonaviy dunyoda birlamchi masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining jadal rivojlanishining muhim sharti ilm-fan va texnika imkoniyatlaridan keng foydalangan holda iqtisodiyot, ijtimoiy, transport va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishdan iborat. Endilikda mamlakatimizning rivojlanayotgan barcha sohalarining jahon taraqqiyoti yetakchilari qatoriga tez va sifatli kirib borishini ta'minlash uchun zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan islohotlarni amalga oshirishni va qo'llabquvvatlashni taqozo etmoqda. Turli hududlarning tumanlari va aholi punktlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi transport tizimi va uning ekspluatatsiya holati hamda yo'l tarmog'ining rivojlanishi,

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

shuningdek, qo'shni hududlarning avtomobil yo'llari tarmog'ini integratsiyalashuvi ko'p jihatdan barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirish, yangi islohotlarni amalga oshirish va alohida hududlarning transport tizimini mamlakatning yagona transport tizimiga integratsiya qilish vazifalarini hal qilishni belgilaydi. Bu esa zamonaliviy geografik axborot tizimlarining yanada kengroq joriy etilishini va ularning axborot bilan ta'minlanishi sifatini oshirishni taqozo etadi.

Agrar siyosat- umumiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan yer bilan bog'liq munosabatlarni isloh qilish asosida agrar munosabatlarni shakllantirish hamda shu munosabatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan agrotexnologik, tashkiliy va iqtisodiy tamoyil hamda vositalar majmui hisoblanadi. Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohalarini qamraboladi. Agrar siyosatni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin. Agrar siyosat o'zida qishloq aholisini moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar siyosatning asosiy sohalari quydagilarni o'z ichiga oladi: agrar bozor; investitsiya; kredit; moliya; ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat; soliqlar va soliqqa tortish; ijtimoiy muhit; maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish. Agrar siyosatning asosiy vazifalaridan biri sifatida agrar qonunchilikka ta'sir o'tkazish, u orqali yer va yer bilan ishlovchilarning manfaatini ko'zlab ish olib borish hisoblanadi. Agrar tarkib - mamlakat rivojlanishi bilan bog'liq holda qishloq xo'jaligini tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining natijasidir. Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo'jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog'liq yig'indisidir. U mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning asosida agrar bozor yotadi. Agrar bozor agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi. Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan agrosanoatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha o'nlab loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Shu asosda raqamlashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa va topshiriqlarni jadal suratlarda olib borishda yetakchi xorijiy tajribani o'rganish, jumladan, Yevropa Ittifoqi va Jahon Bankining maslahat va moliyaviy qo'llab-quvvatlashidan, eng yaxshi texnik yechimlardan foydalanilmoqda. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida fermerlar va agronomlarga raqamli texnologiyalar yordamga kelmoqda. Katta ma'lumotlar (Big data) va ularni tahlil qilish hosilni terib olish uchun qulay vaqt ni belgilash, o'g'itlash sxemasini hisoblab chiqish, monitoring qilish, hosilni prognozlashtirishga yordam bermoqda. Raqamli texnologiyalar o'simlikshunoslikning to'liq siklini boshqarishga imkon yaratadi. Aqlii qurilmalar tuproq, o'simliklar parametrlari, mikroiqlimni

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

o'lchaydi va ma'lumotlarni uzatadi. Datchiklar, koinotdan olingen suratlar, dronlar, meteorologik stansiyalar va boshqa uskunalardan olingen ma'lumotlar Big datani shakllantiradi, maxsus ilovalar bilan tahlil qilinadi va geoportalga joylashtiriladi. So'nggi 15 yil ichida O'zbekiston aholisi 27 milliondan 35 millionga yetdi, har bir kishi uchun ajratilgan yer maydoni esa 23 sotixdan 16 sotixga kamaydi. Shu sababli yerlarning meleriotiv holatini yaxshilash ularga ishlov berish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kundagi web-sayt agro-maslahatlar uchun tezkor va yengil chat-botni o'z ichiga oladi. Shuningdek, fermerlar uchun Agromaslahatlar, Agroklinika, Qonunchilik bazasi hamda imtiyozlar va subsidiyalar bo'yicha ma'lumotlar mavjud. Web-sayt o'simlikshunoslik, urug'chilik, bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, chorvachilik singari qishloq xo'jaligining barcha sohalari bo'yicha keng ma'lumotlarni taqdim etadi. Saytda har kim o'ziga foydali ma'lumotlarni topishi mumkin. O'z biznesini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan fermerlar kreditlar, xalqaro grantlar haqida, shuningdek, ASM sohasiga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan shaxslar, investitsiya loyihalari hamda investorlar uchun imtiyozlar to'g'risida ma'lumot olishlari mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, agrar siyosatni amalga oshirishning strategik vazifalari bo'lib iqtisodiyot bo'yicha samarali raqobatbardosh agrosanoat ishlab chiqarishini shakllantirish, ijtimoiy soha bo'yicha qishloq aholisi turmush darajasini oshirish va qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ekologiya borasida esa ekologik toza iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish va agrosanoatning texnologik darajasini oshirish hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali tabiiy resurslarni saqlab qolish hisoblanadi. Agrar siyosatning ob'ekti milliy agrosanoat majmuasi doirasida shakllanadigan va o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, ayrboshlash va iste'mol munosabatlari yig'inidisidir. Zamonaviy agrar siyosat uni amalga oshirish bilan bog'liq aniq mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga oluvchi yondashuvlar o'z ichiga oladi. Agrar siyosat qishloq hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloqlar aholisi bandligi va turmush darajasini o'sishini ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Makhmudova, A. (2018). Ensuring the competitiveness of the scientific approaches of eco-tourism a case of Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 8(11), 33-41.
2. Makhmudova, A. (2020). Organizational and economic reasons preventing the development of ecological tourism in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1217-1220.
3. Махмудова, А. П. (2017). ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ. In Инновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 123-125). [4] Набиев, Г. А., & Бакирова, О. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ШКОЛЬНИКОВ. Scientific progress, 3(2), 952-958.
4. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020. 8. ЗС Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.